

XORAZM VILOYATINING CHAKANA TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-oktabr)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5178,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,3% ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1287,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 49,0%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3428,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 5,7%), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 463,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,3% ga oshgan) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana tovar aylanmasi hajmi hamda o'sish sur'atlari

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	5178,9	113,3	1287,0	149,0
<i>shaharlar:</i>				
Urganch	2056,1	121,8	1082,8	142,7
Xiva	176,9	102,6	8,9	45,5
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	216,5	113,4	19,4	2,9 m.
Gurlan	339,2	104,5	7,1	114,8
Qo'shko'pir	197,6	102,5	3,0	33,0
Urganch	471,5	111,3	47,3	2,3 m.
Xazorasp	566,1	105,1	16,1	71,4
Xonqa	358,1	126,9	66,5	12,4 m.
Xiva	141,1	113,5	13,3	11,5 m.

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


Shovot	269,7	107,1	15,3	154,9
Yangiariq	276,1	106,8	6,7	175,2
Yangibozor	110,1	104,5	19,4	90,7

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)



2019 yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`shish sur`atlari Urganch shahri, Xonqa, Bog'ot va Xiva tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o`rish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 49,0% ga o'sdi va 1287,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 24,8% ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3891,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 5,0% ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 75,2% ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 YIL
YANVAR-OKTABR




2019 YIL
YANVAR-OKTABR



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Yangibozor (99,5%), Qo'shko'pir (98,5%), Gurlan (97,9%) va Yangiariq (97,6%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 24,8% ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (52,7%), Xonqa (18,6%) va Urganch (10,0%) tumanlarida kuzatilgan.

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	1287,0	149,0	3891,9	105,0
<i>shaharlar:</i>				
Urganch	1082,8	142,7	973,3	103,5
Xiva	8,9	45,5	168,0	110,1
<i>tumanlar:</i>				
Bog`ot	19,4	2,9 m.	197,1	105,1
Gurlan	7,1	114,8	332,1	104,3
Qo`shko`pir	3,0	33,0	194,6	106,0
Urganch	47,3	2,3 m.	424,2	104,5
Xazorasp	16,1	71,4	550,0	106,6
Xonqa	66,5	12,4 m.	291,6	105,1
Xiva	13,3	11,5 m.	127,8	104,0
Shovot	15,3	154,9	254,4	105,0
Yangiariq	6,7	175,2	269,4	105,7
Yangibozor	19,4	90,7	90,7	104,6

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2805,5 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 14,0% ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o`shish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Urganch shahri (14438,6 ming so`m), Urganch (2415,6 ming so`m) Yangiariq (2415,5 ming. so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Xiva (985,0 ming so`m), Qo'shko'pir (1165,3 ming so`m) va Yangibozor (1278,6 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
--	-----------	---

Xorazm viloyati	2805,5	114,0
-----------------	--------	-------

shaharlar:

Urganch	14438,6	121,6
Xiva	1939,5	103,3

tumanlar:

Bog`ot	1337,0	112,2
Gurlan	2320,2	105,0
Qo`shko`pir	1165,3	103,2
Urganch	2415,6	111,4
Xazorasp	2310,8	105,7
Xonqa	1950,4	127,3
Xiva	985,0	114,4
Shovot	1612,2	107,6
Yangiariq	2415,5	107,2
Yangibozor	1278,6	105,1

Jumladan, 2019 yilning yanvar-oktabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4% ni tashkil etib, 71,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2% o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,7% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-oktabr)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1517,7 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 7,1% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlari hajmi 2019 yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra 935,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,3% ga oshgan. Ushbu sektorining umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 61,7% ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Bog'ot, Yangiariq va Yangibozor tumanlarida (100,0%) yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalar
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasi ulushi 38,3% ni tashkil etdi, yirik korxonalarda eng yuqori ulush Urganch tumanida (67,9%) va Urganch shahrida (35,2%) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	1517,7	107,1	582,0	106,7	935,7	107,3
shaharlar:						
Urganch	532,9	107,2	171,3	104,7	361,6	108,4
Xiva	55,3	102,0	0,4	171,6	54,9	101,6
tumanlar:						
Bog`ot	21,8	108,4	0,01	2,9	21,8	109,5
Gurlan	25,4	106,5	0,02	16,0	25,4	107,0
Qo`shko`pir	3,9	105,6	0,01	7,7	3,9	110,5
Urganch	627,9	106,0	406,8	107,5	221,1	103,5
Xazorasp	27,2	106,3	0,01	1,4	27,2	110,8
Xonqa	76,9	114,0	2,4	6,2 m.	74,6	111,2
Xiva	31,9	114,0	0,9	4,0 m.	31,0	111,8
Shovot	35,5	111,8	0,1	26,7	35,4	112,7
Yangiariq	26,2	113,8	0,01	5,9	26,2	114,7
Yangibozor	52,6	105,3	0,01	2,8	52,6	105,7

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`zgarish sur`atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur`atlari Xonqa tumani (114,0%) va Xiva tumani (114,0%) da qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:62-224-65-09